

Ichki audit boshqarmasining 2026-yil I chorak faoliyati natijalari bo'yicha HISOBOTI

1. Umumiy ma'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining tizim tashkilotlari 290 tani tashkil etadi.

Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil 28-oktabrdagi "Vazirlik va tizim tashkilotlari tuzilmalari va boshqaruv xodimlari cheklangan sonini tasdiqlash to'g'risida"gi 186-sonli va 2026-yil 23-yanvaridagi "Vazirlikning 2025-yil 28-oktabrdagi 186-son buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kirirtish to'g'risida"gi 11-sonli buyruqlariga asosan, joriy yilda Ichki audit boshqarmasining 16 ta shtat birliklaridan 7 ta shtat birliklari maqbullashtirilib hozirgi kunda 9 ta shtat birliklari saqlanib qoldi.

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Hisobot davrida jami 4 ta moliyaviy nazorat, profilaktik va budjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tadbirlarda 38 ta obyekt o'rganish ishlari bilan qamrab olingan.

Shundan:

Ichki audit boshqarmasining yillik ish rejasiga asosan, 3 ta tadbir doirasida 37 ta obyektga audit tadbirlari amalga oshirilgan;

Ichki audit boshqarmasining yillik ish rejasidan tashqari (Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xatlari va boshqalarga asosan) 1 ta tadbirda 1 ta obyektga o'rganish ishlari amalga oshirilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan, 4 ta moliyaviy nazorat, profilaktik va budjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlardagi 38 ta obyektga 945 ta holatda jami 214 664,0 mln. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi.

Jumladan:

- vazirlik tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi noto'g'ri yuritilishi natijasida aniqlangan uslubiy xatoliklar yo'nalishida 1 ta holatda 1 173,0 mln. so'mlik;

- asosiy vositalar va tovar moddiy zaxiralari kamomadi bo'yicha 58 ta holatda 2 920,0 mln. so'mlik;

- amaldagi qonunchlik hujjatlariga zid ravishda malga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar bo'yicha 61 ta holatda 35 722,0 mln. so'mlik;

- budjet mablag'lari hisobidan maqsadsiz xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha 1 ta holatda 14,0 mln. so'mlik;

- davlat xaidrlari tartib-taomillariga zid ravishda amalga oshirilgan davlat xaridlari bo'yicha 153 ta holatda 53 015,0 mln. so'mlik;

- budjet mablag'larini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga zid ravishda ortiqcha rejalashtirish bo'yicha 671 ta holatda 121 820,0 mln. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi.

Misol uchun:

- *Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida 28 ta holatda 2 512,9 mln. so'mlik asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklari kamomadi, 6 ta holatda 4 642,4 mln. so'mlik shartnoma shartlariga zid ravishda yetkazib berilgan tovarlar, 147 ta holatda 48 373,0 mln. so'mlik davlat xaridi tartib-taomillari buzilishi, 2 ta holatda 563,0 mln. so'mlik bajarilmagan ish hajmi uchun ortiqcha to'lovlar aniqlandi;*

- *Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida 1 ta holatda 2 917,8 mln. so'mlik bajarilmagan ish hajmi uchun ortiqcha to'lovlar aniqlandi;*

- *Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida 10 ta holatda 1 172,9 mln. so'mlik amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etmasdan tartib buzilish holatlari aniqlandi;*

- *Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida DXSH loyihalaridagi nasos stansiyalarining elektr energiya xarajatlari uchun 29 ta holatda 32 182,7 mln. so'mlik ortiqch to'lovlar aniqlandi;*

- *ABMK Olot tumani boshqarmasida 2026-yil uchun shtatlar jadvalining 1-guruh xarajatlari uchun 9 ta holatda 304,7 mln. so'mlik, 2-guruh xarajatlari uchun 9 ta holatda 76,2 mln. so'mlik, natura shaklidagi ishlar uchun haq to'lash jamg'armasining 1-guruh xarajatlari uchun 1 ta holatda 10 098,3 mln. so'mlik, 2-guruh xarajatlari uchun 1 ta holatda 2 524,6 mln. so'mlik ortiqcha rejalashtirishlar barvaqt aniqlanib, shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazish jarayonida bartaraf etildi.*

Yuquridagi xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan 2 nafar xodimga nisbatan xayfsan intizomiy jazo chorasi va 1 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilish choralari ko'rildi.

Bundan tashqari, mazkur moliyaviy nazorat va budjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan 3 ta tadbirlardagi 199 ta holatda 60 190,0 mln. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan tizim tashkilotlaridagi audit tadbiri hujjatlari huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Misol uchun:

- *Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida o'tkazilgan o'rganish hujjatlari huquqiy baho berish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat xavsizlik xizmatining Surxondaryo viloyati bo'yicha boshqarmasiga;*

- *Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida o'tkazilgan o'rganish hujjatlari huquqiy baho berish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga;*

- *Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida o'tkazilgan o'rganish hujjatlari huquqiy baho berish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuborildi.*

3. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida Ichki audit boshqarmasining yillik ish rejasiga kiritilgan obyektlarda belgilangan muddatlarda audit tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida Ichki audit boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan 4 ta moliyaviy nazorat, profilaktik va budjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarda 38 ta obyekt, Ichki audit boshqarmasining yillik rejasiga asosan 348 ta taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan va 348 ta taklif va tavsiyalarning ijrosi bajarilgan.

Misol uchun:

- *Quyil Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida 2026-yil uchun shtatlar jadvalining. 1-guruh xarajatlari uchun 35 ta holatda 1 255,8 mln. so'mlik, 2-guruh xarajatlari uchun 35 ta holatda 314,0 mln. so'mlik so'mlik ortiqcha rejalashtirishlar aniqlanib, shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazish jarayonida barvaqt bartaraf etildi.*

- *Chapqirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida 2026-yil uchun shtatlar jadvalining 1-guruh xarajatlari uchun 140 ta holatda 3 793,5 mln. so'mlik, 2-guruh xarajatlari uchun 140 ta holatda 948,4 mln. so'mlik so'mlik ortiqcha rejalashtirishlar aniqlanib, shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazish jarayonida barvaqt bartaraf etildi.*

- *Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasida 2026-yil uchun shtatlar jadvalining natura shaklidagi ishlar uchun haq to'lash jamg'armasining 1-guruh xarajatlari uchun 1 ta holatda 1 760,3 mln. so'mlik, 2-guruh xarajatlari*

uchun 1 ta holatda 440,0 mln. soʻmlik ortiqcha rejalashtirishlar aniqlanib, shtatlar jadvali roʻyxatdan oʻtkazish jarayonida barvaqt bartaraf etildi.

- Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida 2026-yil uchun shtatlar jadvalining 1-guruh xarajatlari uchun 24 ta holatda 756,7 mln. soʻmlik, 2-guruh xarajatlari uchun 24 ta holatda 189,2 mln. soʻmlik soʻmlik ortiqcha rejalashtirishlar aniqlanib, shtatlar jadvali roʻyxatdan oʻtkazish jarayonida barvaqt bartaraf etildi.

- Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida 2026-yil uchun shtatlar jadvalining 1-guruh xarajatlari uchun 26 ta holatda 781,0 mln. soʻmlik, 2-guruh xarajatlari uchun 26 ta holatda 195,3 mln. soʻmlik soʻmlik ortiqcha rejalashtirishlar aniqlanib, shtatlar jadvali roʻyxatdan oʻtkazish jarayonida barvaqt bartaraf etildi.

5. Hisob palatasining “Masofaviy nazorat” AAT orqali kelib tushgan xavf tahlilari.

Hisobot davrida, Ichki audit boshqarmasining Masofaviy nazoratni amalga oshirish va xavf-xatarlarni baholash boʻlimi tomonidan oʻtkazilgan masofaviy audit tadbirlarida 5 998 ta holatda 26 810,9 mln. soʻmlik risk-tahlilari boʻyicha shubhali moliyaviy operatsiyalar aniqlandi.

Mazkur risk-tahlillarining barchasida audit tadbirlari oʻtkazildi hamda ushbu audit tadbirlari natijasiga koʻra, 1 468 ta holatda 8 986,0 mln. soʻmlik risk-tahlilari oʻz tasdigʻini topdi va amaldagi qonunchilik talablari doirasida ushbu kamchiliklar bartaraf etilib budjet intizomi taʼminlanishiga erishildi.

Misol uchun:

- Davlat xaridlarida affillanganlik tahlili (Uzex AI) yoʻnalishida boʻyicha risk-tahlillari 4 ta holatda 299,2 mln. soʻmni tashkil etadi.

Ushbu risk-tahlillarining barchasida audit tadbirlari oʻtkazildi va barcha risk-tahlillaro oʻz isbotini topdi.

- Budjet tashkilotlarida ishlovchilarning 4 va undan ortiq daromad manbaiga ega fuqorolar yoʻnalishida boʻyicha risk-tahlillari 76 ta holatda 166,0 mln. soʻmni tashkil etadi.

Ushbu risk-tahlillarining 51 tasida 106,5 mln. soʻmlik oʻrganish ishlari olib borilgan va 33 ta holatda 53,6 mln. soʻmlik risk-tahlilari oʻz tasdigʻini topdi.

- Debitor qarzdorlik yoʻnalishida boʻyicha risk-tahlillari 821 ta holatda 18 982,8 mln. soʻmni tashkil etadi.

Ushbu risk-tahlillarining 410 tasida 7 450,4 mln. soʻmlik oʻrganish ishlari olib borilgan va 256 ta holatda 4 139,8 mln. soʻmlik risk-tahlilari oʻz tasdigʻini topdi.

6. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Ichki audit boshqarmasi xodimlarini amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlardan, yangiliklardan havardor bo'lishlari, ushbu yangiliklarni amaliyotda qo'llashlari, provard natijada budjet va budjetdan tashqari mablag'lari maqsadli va samarali ishlatilish bo'yicha malakalarini mustahkamlashlari maqsadida:

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2026-yil 24-fevral kuni "Davlat budjeti mablag'lari samarali va maqsadli sarflanishi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatish hamda moliyaviy huquq buzarlklarni oldini olish va kamaytirish" mavzusidagi;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2026-yil 23–27-fevral kunlari "Xalqaro standartlar asosida ichki audit xizmatlari xodimlarini sertifikatlash" mavzusidagi amaliy seminar;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2026-yil 26-fevral kuni "Monitoring portal axborot tizimidan foydalanish imkoniyatini yaratish" mavzusidagi onlayn seminar;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan, 2026-yil 24–27-mart kunlari "Xalqaro standartlar asosida ichki audit xizmatlari xodimlarini sertifikatlash" mavzusidagi amaliy seminarlarda ishtirok etdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazida 3 nafar Ichki audit boshqarmasi xodimlari Ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki audit xizmati hamda davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi xodimlarining malakasini oshirish kursi bo'yicha o'z malakalarini oshirdilar va test imtihonlaridan yetarli ballarni qo'lga kiritib, malaka oshirganlik guvohnomasiga ega bo'ldilar.

7. Davlat organi va tashkiloti tizimidagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

Suv xo'jaligi vazirligi ta'sischi ligidagi "Nasos ta'mirlash" MChJ, "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MChJ, "Tolimarjon Sadok Baliq" MChJ va "O'zsuvekspertiza" DKlarga 2026-yil 1-apreldagi 03/15-489-sonli xati orqali, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunining 35-moddasiga muvofiq, ustav kapitalida davlatga tegishli ulushga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin o'n besh kun ichida, biroq hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunidan kechiktirmay,

soliq organlariga auditorlik xulosasining ko‘chirma nusxasini taqdim etishi lozimligi to‘g‘risidagi topshiriq berildi.

8. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar (taklif va tavsiyalar)

2026-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlar)ga o‘z vaqtida erishilishini ta‘minlash maqsadida Ichki audit boshqarmasi tomonidan risk-tahlilari o‘tkazildi, mazkur risk-tahlillari natijasiga ko‘ra 5 ta yo‘nalishda risk omillari aniqlandi. Ushbu risk omillarini barvaqt bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, ijroga qaratildi.

1-risk omili:

- Vazirlik tizimida bo‘lgan nasos stansiyalardagi eskirgan nasoslarni zamonaviy energiya tejamkorlarga almashtirish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 4-ilovasiga asosan 156 ta zamonaviy energiya tejamkor nasoslarga almashtirish ishlari bajarilmaslik xavfining oldini olish.

Bartaraf etish chora-tadbiri:

1. Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan xaridqilinadigan 156 ta nasoslarni belgilangan tartibda elektron savdo platformalariga joylashtirish.
2. Elektron savdo platformalari orqali nasoslarni yetkazib beruvchi tashkilotlarni aniqlash va ular tomonidan nasoslarni tashkilotlarga yetkazib berilishini ta‘minlash.
3. Xarid qilingan nasoslarni belgilangan tartibda o‘rnatish ishlarini amalga oshirish.

2-risk omili:

Vazirlik tizimida bo‘lgan nasos stansiyalardagi eskirgan elektrodvigatellarini yangi zamonaviy elektrodvigatellarga almashtirish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 5-ilovasiga asosan 149 ta yangi zamonaviy elektrodvigatellarga almashtirish ishlari bajarilmaslik xavfining oldini olish.

Bartaraf etish chora-tadbiri:

1. Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan xarid qilinadigan 149 ta elektrodvigatellarni belgilangan tartibda elektron savdo platformalariga joylashtirish.
2. Elektron savdo platformalari orqali elektrodvigatellarni yetkazib beruvchi tashkilotlarni aniqlash va ular tomonidan elektrodvigatellarni tashkilotlarga yetkazib berilishini ta‘minlash.

3. Xarid qilingan elektrodvigatellarni belgilangan tartibda o‘rnatish ishlarini amalga oshirish.

3-risk omili:

Vazirlik tizimida bo‘lgan meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimiga o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarorining 11-ilovasiga asosan 2 952 ta meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimiga o‘tkazish ishlari bajarilmaslik xavfining oldini olish.

Bartaraf etish chora-tadbiri:

1. Hududiy meliorativ ekspeditsiyalar hisobidagi meliorativ kuzatuv quduqlari uchun xarid qilinadigan “Dayver” qurilmalarini texnik topshiriqqa muvofiqligini nazorat qilish.

2. Meliorativ kuzatuv quduqlarida o‘rnatilgan “Dayver” qurilmalari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash.

3. Xarid qilinadigan “Dayver” kuzatuv qurilmalarining suv sathi va uning tarkibi bo‘yicha kunlik uzatiladigan axborotni ma’lumotlar bazasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiya qilinishini nazorat qilish.

4-risk omili:

Suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirish maqsadida Respublika bo‘ylab suv xo‘jaligi obyektlarida 1895 dona raqamli qurilmalar soni – Prezident Administratsiyasining 2025-yil 30-avgustdagi 02-1418-sonli topshirig‘ining 3-bandi 2-bosqichi natijasiga chiqolmaslik xavfi.

Bartaraf etish chora-tadbiri:

1. Hududiy suv xo‘jaligi tashkilotlarida buyruq asosida ishchi guruh tarkibi shakllantirilib, mazkur buyruqqa asosan suv xo‘jaligi obyektlaridagi gidropostlarda onlayn suv kuzatuvi qurilmasi o‘rnatish bo‘yicha 1895 ta tumanlararo nuqtalarni aniqlash hamda dalolatnomalar rasmiylashtirish.

2. Hududiy ishchi guruhi tomonidan mazkur topshiriqda belgilangan vazifalarni ijrosini o‘z muddatlarda bajarish maqsadida xarid qilinadigan zamonaviy raqamli qurilmalarni ishlab chiqilgan texnik topshiriqnomalarini tasdiqlash hamda belgilangan tartibda davlat xaridi hujjatlarini ishlab chiqish shuningdek, o‘rnatilgan tartibda xarid savdosini e‘lon qilish.

3. Xarid qilingan raqamli qurilmalarni o‘rnatish va ulardan maqsadli foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

5-risk omili:

Suv fondi yerlarini kadastr hujjatlarini o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun xarajatlarini amalga oshirilishida ta’rif narxlari asoslantirilmaganlik xavfi (PQ-73-son, 30.12.2021-y.).

Bartaraf etish chora-tadbiri:

1. Suv fondi yerlarini kadastr hujjatlarini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun xarajatlarini amalga oshirilishida ta‘rif narxlarini vakolatli davlat (“O‘zdavyerloyiha” DILI, Respublika “Aerogeodeziya” markazi, Davlat kadastrlar palatasi) organlari orqali tegishli xulosalar olish.

2. Mazkur tadbirlarni amalga oshirilishida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi qonuni talablari asosida vakolatli davlat xaridlari portallari orqali elektron tarzda davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkillashtirish.

9. Davlat organi va tashkiloti faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar.

Budget mablag‘laridan tejamkorlik va barqarorlikni ta‘minlash tamoyili asosida maqsadli, samarali xarajatlarni to‘g‘ri amalga oshirish hamda Suv xo‘jaligi tizimini iqtisodiy yo‘nalishida malakali kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida, tizimdagi hisobchilar va iqtisodchilarni har yili bosqichma-bosqich O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazida malakalarini oshirish ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

10. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar.

Vazirlikning quyi tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xarid jarayonlarini masofadan auditdan o‘tkazish, manfaatlar to‘qnashuvi, affillanganlik holatlari bo‘yicha profilaktik tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, xarid jarayonidagi IP-manzil va boshqa ma‘lumotlarni kuzatish imkonini yaratish.

11. Ichki audit tuzilmasi xodimlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari.

Ichki audit boshqarmasining 9 nafar xodimlari faoliyati samaradorligini baholash natijalariga ko‘ra:

- ichki audit xizmati xodimlari tomonidan 2026-yil I choragida budget to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olishdagi natijalar yuzasidan jami 671 ta holatda 121 820,0 mln. so‘mlik budget mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi yuzasidan profilaktik tadbirlarni amalga oshirishga erishdilar;

- ichki audit xizmati xodimlari tomonidan 2026-yilning I choragida masofaviy nazoratni amalga oshirishda jami 1 468 ta holatda 8 986,0 mln. so‘mlik shubhali moliyaviy operatsiyalar aniqlandi va amaldagi qonunchilik talablari doirasida bartaraf etildi;

- 2026-yil I choragida ichki audit xizmati xodimlari tomonidan berilgan taklif va tavsiyalarning ichki audit obyektlari tomonidan bajarilishi natijalari Ichki audit

boshqarmasining yillik rejasiga asosan 348 ta taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu taklif va tavsiyalarning ijrosi to'liq bajarilgan.

Ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligi Yig'ma ko'rsatkichlari natijasiga ko'ra, 9 nafar xodimlar 71–86% oralig'ida baholanib yaxshi darajasiga ega bo'lganliklari ma'lum bo'ldi.

Ichki audit boshqarmasi